



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOIYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBIZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING USLUBIIY ASOSLARI.....	294
Mamanazarov A.A.	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHA TLARI.....	299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Axmetova Salima Seytovna	



HUDUD IQTISODIYOTIGA "YASHIL INVESTITSİYALAR"NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....	313
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	321
Suyunov R.G'.	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	326
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	340
Siroj Zarina Rustambekovna	
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	347
Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli	
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI	354
G'iyosov Ilxom Karimovich	
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....	361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu	
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	369
Turayeva Gulizahro	
INNOVATION EKOTIZIMDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQUV INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI	374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....	386
Kaxorov Ulug'bek	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)	389
Abdukarimov Akbar G'anisherovich	
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION MODELLASHTIRISH.....	393
Raximov Azizbek Zokirovich	
OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....	400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	404
Kodirova Xurshida Ismoilovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	409
Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich	
Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li	



KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	416
Xamidova Soro	
Toshpulatova Laylo	
DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH.....	423
Mariya Bekimbetova	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	427
Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi	
SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	431
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI	439
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI	443
Safarova Yulduz Abbos qizi	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI MOLIVAVIY HISOBOTNI SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASHDA QO'LLASH	448
Xusanov Shuxrat Burxonovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИВНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	454
Рузибоева Нилуфар Тўлқин қизи	
ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR EFFICIENT WATER RESOURCE USE BASED ON CIRCULAR ECONOMY PRINCIPLES	461
Sotvoldiyeva Muslimaxon Gayratjon kizi	
HUDUDIY IQTISODIY IXTISOSLASHUVNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY INDEKSLARI: TAHLILIY SHARH VA INTEGRAL YONDASHUV	467
Mansurov Zikriyo Muxsinjon o'g'li	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI.....	473
Karimov Inomjon Ortikbayevich	
TRANSPORT SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR.....	480
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
МЕХАНИЗМ ДЕЙСТВИЯ МЕСТНЫХ НАЛОГОВ И СБОРОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	484
Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич	
IQTISODIY ADOLATNI TA'MINLASHNING SOLIQ-BUDJET MEXANIZMLARI: NAZARIY YONDASHUVLAR, MEZONLAR VA BAHOLASH USULLARI.....	491
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ФУНКЦИОНИРОВАНИИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ.....	499
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
ANALYSIS OF AGRICULTURAL EXPORT DEVELOPMENT TRENDS AND EXPORT GEOGRAPHY IN UZBEKISTAN	504
Qobilova Malika Uktamovna	
Usanova Feruza Zafar kizi	
Muratov Shukrullo Abduraimovich	



O'ZBEKISTON TURIZM TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLARNI TIZIMLI TAHLIL QILISH VA ULARNI BARTARAF ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	508
Khusniddin Egamnazarov	
IKKI YOQLAMA SOLIQA TORTISHNING OLDINI OLIHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASH AMALIYOTI.....	516
Sarsengalieva Albina Askar qizi	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT PORTFELINING TARKIBIY TAHLILI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	524
Abduganiyev Shoxruxbek Shavkatbek o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTNI SANOATLASHUVINING HAJMIY VA SIFAT O'LG'AMHLARI O'RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK TAHLILI.....	533
Erkayev Akrom Normuxammadovich	



MILLIY IQTISODIYOTNI SANOATLASHUVINING HAJMIY VA SIFAT O'LCHAMLARI O'RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK TAHLILI

Erkayev Akrom Normuxammadovich

Toshkent davlat istisodiyot universiteti (DSc) mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-2638-7958

erkayevakrom27@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotning sanoatlashuvi hajmiy va sifat o'lchamlari o'rtasidagi nomutanosiblik 2016–2025-yillar rasmiy statistik ma'lumotlari asosida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda sanoatlashuv darajasi yagona kuzatiladigan ko'rsatkich emas, balki hajm, tarkib va sifat darajalaridan iborat murakkab, ko'p o'lchovli tushuncha sifatida talqin etiladi. Petti–Klark, Kuznets, Kaldor–Verdoorn hamda Rodrikning erta deindustrializatsiya nazariyalari O'zbekiston ma'lumotlari misolida empirik tekshirilib, ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli oshgani holda uning texnologik tarkibi yomonlashgani, ya'ni hajmiy va sifat o'lchamlari qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanishi mumkinligi asoslangan. Sanoat o'sishining metallurgiya tarmog'i atrofida jamlanishi Herfindahl indeksi orqali, sanoatlashuvning har bir hajm birligiga to'g'ri keladigan sifat darajasi esa maxsus diagnostik nisbat orqali baholangan. Tahlil natijalari asosida sanoat siyosatining maqsad funksiyasini hajmiy ko'rsatkichlardan sifat ko'rsatkichlariga yo'naltirish zarurligi uch qatlamli konseptual model doirasida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sanoatlashuv, ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsuloti, tarkibiy transformatsiya, texnologik tarkib, hajmiy o'lcham, sifat o'lchami, erta deindustrializatsiya, Kaldor–Verdoorn qonuni, Hoffmann koeffitsiyenti, Herfindahl indeksi, hajm–sifat nisbati, iqtisodiy murakkablik.

Аннотация. В статье на основе официальных статистических данных Республики Узбекистан за 2016–2025 годы проведён комплексный анализ дисбаланса между количественными и качественными параметрами индустриализации национальной экономики. Индустриализация рассматривается не как единый наблюдаемый показатель, а как многомерная категория, включающая количественные, структурные и качественные характеристики. На эмпирическом материале Узбекистана проверены положения теорий Петти–Кларка, Кузнеца, Калдора–Вердоорна и концепции преждевременной деиндустриализации Родрика. Установлено, что при существенном увеличении доли произведённой промышленной продукции в валовом внутреннем продукте наблюдается ухудшение её технологической структуры, что свидетельствует о возможности разнонаправленного движения количественных и качественных параметров индустриализации. Концентрация промышленного роста вокруг металлургической отрасли оценена с использованием индекса Херфиндала, а уровень качества на единицу объёма индустриализации измерен с помощью специально разработанного диагностического коэффициента. На основе полученных результатов обоснована необходимость переориентации целей промышленной политики с количественных показателей на качественные в рамках трёхуровневой концептуальной модели.

Ключевые слова: индустриализация, произведённая промышленная продукция, структурная трансформация, технологическая структура, количественное измерение, качественное измерение, преждевременная деиндустриализация, закон Калдора–Вердоорна, коэффициент Хоффмана, индекс Херфиндала, соотношение «объём–качество», экономическая сложность.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the imbalance between the quantitative and qualitative dimensions of national industrialization using official statistical data for Uzbekistan covering the period 2016–2025. Industrialization is conceptualized not as a single observable indicator but as a multidimensional phenomenon consisting of quantitative, structural, and qualitative dimensions. The theoretical propositions of Petty–Clark, Kuznets, Kaldor–Verdoorn, and Rodrik's premature deindustrialization hypothesis are empirically examined using Uzbekistan's data. The findings demonstrate that while the share of manufactured industrial output in gross domestic product has increased substantially, its technological composition has deteriorated, indicating that the quantitative and qualitative dimensions of industrialization may evolve in opposite directions. The concentration of industrial growth in the metallurgical sector is assessed using the Herfindahl Index, while



the quality achieved per unit of industrialization is measured through a specially developed diagnostic ratio. Based on the empirical findings, the study argues that the objective function of industrial policy should be shifted from quantitative expansion toward qualitative improvement within a three-layer conceptual framework.

Keywords: industrialization, manufactured industrial output, structural transformation, technological composition, quantitative dimension, qualitative dimension, premature deindustrialization, Kaldor–Verdoorn law, Hoffmann coefficient, Herfindahl Index, quantity–quality ratio, economic complexity.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda sanoatlashtirish strategik ustuvor yo'nalish sifatida barcha davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy multiplikatori bo'lib, u nafaqat yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni, balki bandlikni, eksportni, texnologik rivojlanishni va innovatsion salohiyatni ham belgilaydi. Jahon tarixi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan iqtisodiyotga erishgan barcha mamlakatlar o'z rivojlanishining bir bosqichida rejali va maqsadli sanoatlashtirish strategiyasini amalga oshirgan.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlangan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida mamlakat yalpi ichki mahsulotida sanoat ulushini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Ayni paytda sanoat ulushining miqdoriy oshishi o'z-o'zidan sanoatlashuvning sifat jihatidan chuqurlashganini anglatmaydi. To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida sanoatning texnologik mazmuni, raqamlashtirilishi va innovatsion salohiyati o'sish sifatini belgilovchi hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Shu bois mazkur maqolaning maqsadi sanoatlashuvning hajmiy o'sishi bilan uning sifat darajasi o'rtasidagi munosabatni O'zbekiston misolida empirik baholash va aniqlangan nomutanosiblikning nazariy hamda amaliy oqibatlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatlashuv jarayonining tarkibiy tabiati klassik iqtisodiy nazariyalarda keng o'rganilgan. U. Petti va K. Klark iqtisodiy o'sish davomida mehnat hamda kapital resurslarining birlamchi sektordan ikkilamchi, so'ngra uchlamchi sektorga oqib o'tishini qonuniyat darajasiga ko'targan bo'lsa, A. Fisher bu oqimning harakatlantiruvchi kuchini talabning daromadga nisbatan elastikligidagi tafovut bilan izohlagan. S. Kuznets sanoatlashuvni alohida tarmoqning o'sishi emas, balki butun iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi sifatida talqin qilib, tarkibiy o'zgarish sur'atini o'sish sifatining bevosita o'lchovi deb ko'rsatgan.

Sanoatning iqtisodiy o'sishdagi alohida rolini N. Kaldor uch o'zaro bog'liq qonuniyat orqali asoslagan bo'lib, ulardan ikkinchisi P. Verdoorn nomi bilan ham ataladi va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi mehnat unumdorligining ortishini keltirib chiqarishini ifodalaydi. A. Lyuis ikki sektorli model orqali mehnat resurslarining sektorlararo qayta taqsimlanishini, U. Baumol esa unumdorligi sekin o'suvchi tarmoqlardagi «xarajat kasalligi»ni tahlil qilgan. Zamonaviy rivojlanish iqtisodiyotidagi eng jiddiy ogohlantirish D. Rodrikning erta deindustrializatsiya konsepsiyasi hisoblanadi: rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat ulushi ilgarigi avlod mamlakatlariga qaraganda ancha past daromad darajasida cho'qqiga chiqmoqda. S. Hidalgo va R. Hausmann esa iqtisodiy murakkablik indeksini taklif etib, mamlakat eksport savatining tarkibi uning yashirin ishlab chiqarish salohiyatini aks ettirishini ko'rsatgan.

Postsovet iqtisodiy adabiyotida S. D. Bodrunov moddiy ishlab chiqarishning ustuvorligini saqlagan holda uning bilim sig'imini oshirish zarurligini asoslasi, S. Y. Glazev texnologik ukkladlar almashinuvi konsepsiyasini rivojlantirgan, A. V. Buzgalin va A. I. Kolganov esa texnologik yangilanishni ishlab chiqarish munosabatlaridan ajratib bo'lmazligini ko'rsatgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A. V. Vahobov, A. O'Imasov, B. Yu. Xodiyev, Sh. Sh. Shodmonov, Q. X. Abduraxmonov, H. P. Abulqosimov, S. R. Topildiyev va T. Jurayevlar sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda industrial jamiyatdan postindustrial innovatsion tizimlarga o'tish qonuniyatlarini tadqiq etishgan. Shu bilan birga, sanoatlashuvning hajmiy o'sishi bilan uning sifat darajasi o'rtasidagi nomutanosiblikni miqdoriy baholovchi tadqiqotlar hozircha yetarli emas, bu esa mazkur maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, indeksli tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Tahlilning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish tarkibi va tashqi savdo to'g'risidagi 2016–2025-yillarga oid rasmiy ma'lumotlari tashkil etadi. Sanoatlashuv darajasi



uch mustaqil o'lchov darajasida qaraladi: hajmiy daraja sanoatning qo'shilgan qiymat va bandlikdagi ulushini, tarkibiy daraja sanoat ichidagi tarmoqlar nisbatini, sifat darajasi esa sanoat yaratayotgan qo'shilgan qiymatning texnologik mazmunini o'lchaydi. Sanoat tarkibining konsentratsiyasini baholashda Herfindahl indeksi, tarmoqlarning texnologik mazmunini baholashda esa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining texnologik jadallik taksonomiyasi qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoatlashuv jarayonining eng barqaror va empirik jihatdan ko'p marta tasdiqlangan qonuniyatlari uning tarkibiy tabiatini aks ettiradi. Bu qonuniyatlarni O'zbekiston ma'lumotlari misolida qiyosiy baholash mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning klassik nazariyalarida qayd etilgan ayrim qonuniyatlarni tasdiqlanayotganini, ayrim yo'nalishlarda esa hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. Sanoatlashuvning asosiy iqtisodiy qonuniyatlari va ularning O'zbekiston iqtisodiyotida namoyon bo'lishi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval
Sanoatlashuvning asosiy iqtisodiy qonuniyatlari va ularning O'zbekiston iqtisodiyotida namoyon bo'lishi¹

No	Qonuniyat	Muallif	O'zbekiston ma'lumotlarida namoyon bo'lishi
1	Petti-Klark qonuni	U.Petti, K.Klark	Qishloq xo'jaligi ulushi 24,1 dan 16,6 foizga tushgan, Ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsuloti ulushi 10,4 dan 20,8 foizga ko'tarilgan
2	Tarkibiy transformatsiya	S.Kuznets	Tarkibiy siljishning asosiy qismi 2017-yildan keyingi davrga to'g'ri keladi
3	Kaldor-Verdoorn qonuni	N.Kaldor, P.Verdoorn	Bir bandga qo'shilgan qiymat bo'yicha sanoat ustunligi oshgan, biroq bandlik ulushi o'zgarmagan
4	Hoffmann qonuni	V.Hoffmann	Koeffitsiyent 2010-yildagi 0,56 dan 2023-yilda 0,40 ga tushgan
5	Erta deindustrializatsiya	D.Rodrik	Qo'shilgan qiymat bo'yicha alomat yo'q, bandlik bo'yicha alomat mavjud

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Petti-Klark qonuni va Kuznetsning tarkibiy transformatsiya nazariyasiga mos ravishda iqtisodiyotda tarmoqlar tarkibining sezilarli o'zgarishi kuzatilmoqda. 2016–2025-yillarda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qisqargan, sanoat ulushi esa oshgan. Biroq bu o'tishning sifat mazmuni klassik modeldan farq qiladi: klassik modelda sanoatga o'tish unumdorlik va texnologik darajaning oshishi bilan birga kechadi, O'zbekiston misolida esa sanoatga o'tish asosan resurs va o'rta past texnologiyali tarmoqlar hisobiga ta'minlangan.

Iqtisodiyot tarkibidagi siljishning miqdoriy ko'rinishi hajmiy darajada eng aniq ifodalanadi.

Milliy statistika qo'mitasining yalpi qo'shilgan qiymat tarkibi bo'yicha ma'lumotlari kengaytirilgan sanoat guruhi, ya'ni tog'-kon sanoati, qayta ishlash, energetika va suv ta'minoti birgalikda 2016-yildagi 19,1 foizdan 2025-yilda 26,7 foizga oshganini ko'rsatadi. Sektorlar bo'yicha siljishning miqdoriy ko'rinishi 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval
O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoat ulushi, 2016-2025-yillar, foizda²


Ko'rsatkich	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Tog'-kon sanoati	2,2	3,0	4,4	5,4	3,4	3,5	3,4	3,0	3,0	2,8
Ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsuloti	15,2	17,3	19,3	20,0	21,9	21,7	20,5	20,2	20,8	21,7
Energetika, suv ta'minoti	1,7	1,5	1,5	1,8	1,8	1,7	1,7	1,8	2,3	2,2
Sanoat, jami	19,1	21,9	25,2	27,2	27,1	27,0	25,6	24,9	26,1	26,7

¹ Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. www.stat.uz

² Milliy statistika qo'mitasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



2-jadvalga ko'ra, kengaytirilgan sanoat guruhining ulushi o'n yil davomida 7,6 foiz punktga oshgan. Eng jadal o'zgarish 2016 va 2020-yillar oralig'iga to'g'ri keladi: ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotining ulushi shu to'rt yilda 15,2 foizdan 21,9 foizga ko'tarilgan, keyingi besh yilda esa 20 va 22 foiz oralig'ida barqarorlashgan. Demak, tarkibiy siljish tabiiy o'sishning uzluksiz natijasi emas, balki u aniq belgilangan davrda, ya'ni 2017-yildagi islohotlardan keyin jadallashgan (1-rasm).



1-rasm. Sanoat ulushining yalpi ichki mahsulotdagi dinamikasi, 2016-2025-yillar, foizda³.

Hajmiy o'sish ta'minlangan bo'lsa-da, uning sifat mazmunini baholash uchun tahlil ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotining ichki tarkibiga qaratiladi. Ulushlar joriy narxlardagi qo'shilgan qiymatdan hisoblangani bois, ularning o'zgarishida fizik hajm bilan bir qatorda tarmoqlar mahsulotining nisbiy narxi ham aks etadi. Shu bois agregat ulush sanoat ichida nima ro'y berayotganini to'liq ko'rsatmaydi. Ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotining eng yirik bo'limlari ulushining o'zgarishi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadvalga ko'ra, o'n yil davomida ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsuloti tarkibidagi eng katta o'zgarish metallurgiya bo'yicha ro'y bergan: uning ulushi 10,6 foizdan 24,3 foizga, ya'ni 13,7 foiz punktga oshgan va tarmoq sanoatning eng yirik bo'limiga aylangan. Ikkinchi tomonda oziq-ovqat sanoati turadi: uning ulushi 24,5 foizdan 16,1 foizga qisqargan. Kimyo sanoatining ulushi 8,1 foizdan 4,6 foizga, farmatsevtika sanoatining ulushi esa 1,3 foizdan 0,6 foizga tushgan (3-jadval).

3-jadval

Ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsuloti tarkibida asosiy tarmoqlar ulushi, 2016-2025-yillar, foizda

Bo'lim	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Metallurgiya sanoati	10,6	12,8	16,5	22,5	26,0	25,6	23,3	22,7	22,7	24,3
Oziq-ovqat sanoati	24,5	19,2	13,3	13,9	13,8	12,9	12,5	11,8	13,8	16,1
To'qimachilik sanoati	14,6	13,9	13,1	11,8	12,0	13,8	13,6	12,9	11,9	10,7
Kimyo sanoati	8,1	8,2	8,0	7,4	6,9	7,4	7,3	6,1	5,4	4,6

Metallurgiya o'z ulushini oshirgani sari boshqa bo'limlarning ulushi arifmetik tarzda qisqargan, shu bois oziq-ovqat yoki kimyo sanoatining ulushi pasayishi ularning inqirozi emas, balki metallurgiya hisobiga maxrajning kengayishi natijasi bo'lishi mumkin. Bo'limlar ulushining dinamikasi 2-rasmda keltirilgan.

3 Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.



Sanoat tarkibining konsentratsiya darajasini yaxlit o'lchash uchun Herfindahl indeksi hisoblanadi. Indeks bo'limlar ulushi kvadratlari yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$HHI = \sum_{i=1}^n s_i^2 \quad (2)$$

bu yerda:

s_i — i-tarmoqning ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotidagi ulushi.


Indeksning qiymati nolga yaqin bo'lsa sanoat tuzilmasi diversifikatsiyalangan, birga yaqin bo'lsa monopollashgan hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, konsentratsiya indeksi 2016-yilda 0,1136 ni tashkil etgan, 2017-yilda 0,0989 gacha pasaygan, so'ngra izchil ko'tarilib 2025-yilda 0,1193 ga yetgan. Indeksning eng past qiymati 2017-yilga to'g'ri keladi, aynan shu yili sanoat tuzilmasi eng diversifikatsiyalangan holatda bo'lgan. Keyingi yillarda metallurgiya ulushi oshgani sari indeks ham ko'tarilgan, bu ikki ko'rsatkichning bir vaqtda harakatlanishi konsentratsiyaning asosiy manbai metallurgiya ekanini tasdiqlaydi.⁴

Sanoat tuzilmasining o'z ishlab chiqarish vositalarini yaratish qobiliyatini o'lchashda Hoffmann koeffitsiyenti qo'llaniladi, u iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning investitsion tovarlar ishlab chiqarishga nisbati sifatida hisoblanadi:

$$K_H = \frac{Q_{ist}}{Q_{inv}} \quad (3)$$

bu yerda Q_{mst} — iste'mol tovarlari, Q_{inv} — investitsion tovarlar ishlab chiqarish hajmi.

Sifat darajasini yaxlit baholash uchun ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotining bo'limlari texnologik jadallik bo'yicha guruhlanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining taksonomiyasiga muvofiq farmatsevtika hamda kompyuter va elektron mahsulotlar bo'limlari yuqori texnologiyali, kimyo, elektr uskunalar, mashina va uskunalar, avtotransport bo'limlari o'rtacha yuqori texnologiyali guruhga kiritiladi (2-rasm).



2-rasm. Ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsuloti tarkibida asosiy tarmoqlar ulushi, 2016-2025-yillar, foizda.


Guruhlarning ulushi 3-rasmda keltirilgan. 3-rasmga ko'ra, yuqori va o'rtacha yuqori texnologiyali bo'limlarning birgalikdagi ulushi 2016-yilda 17,8 foizni tashkil etgan, 2018-yilda 29,2 foizgacha ko'tarilgan, so'ngra izchil pasayib 2025-yilda 20,7 foizga tushgan. O'rtacha past texnologiyali guruhning ulushi esa

⁴ Muallif hisob-kitobi.



27,2 foizdan 39,3 foizga oshgan. Past texnologiyali guruhning qisqarishi yuqori texnologiyali guruh foydasiga emas, o'rtacha past guruh foydasiga ro'y bergan, chunki metallurgiya aynan shu guruhga kiradi. Farmatsevtika hamda kompyuter va elektron mahsulotlar bo'limlarining ulushi esa butun davr davomida bir foizdan past yoki unga yaqin qolgan, ya'ni sanoatning texnologik yadrosini tashkil etishi lozim bo'lgan tarmoqlar o'smagan.

Mazkur natija tadqiqotning markaziy tezisini empirik tarzda tasdiqlaydi. Rodrik erta deindustrializatsiya konsepsiyasi doirasida rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat ulushining pasayishini asosiy xavf deb bilgan edi. O'zbekiston ma'lumotlarida sanoat ulushi pasaymagan, aksincha oshgan, biroq uning texnologik tarkibi yomonlashgan. Demak hajmiy va sifat o'lchamlari nafaqat bir-biridan farq qiladi, ular qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanishi ham mumkin. Sanoat qo'shilgan qiymatning bandlikdagi ulushi 2016-2025-yillarda 11,5 foizdan 11,4 foizga, ya'ni amalda o'zgarmagan holda qolgani ham sanoatlashuvning mehnat sig'imi jihatidan chuqurlashmaganini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Texnologik jadallik bo'yicha guruhlarining ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotidagi ulushi, 2016-2025-yillar, foizda⁵.

Ushbu nomutanosiblik sanoatlashuv darajasini oshirishning konseptual modeli nuqtayi nazaridan izohlanadi. Har qanday sanoatlashuv modeli maqsad funksiyasi, harakatlantiruvchi kuch va resurs manbaidan tashkil topadi. Agar maqsad sifatida sanoatning ulushi olinsa, siyosat hajmiy ko'rsatkichlarga, investitsiya jadalligiga va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo'naltiriladi; agar maqsad sifatida qo'shilgan qiymat va texnologik murakkablik olinsa, siyosat sifat ko'rsatkichlariga, mehnat unumdorligiga va bilim to'plashga qaratiladi. O'zbekiston misolida tahlil sanoat siyosatining maqsad funksiyasi hajmiy ko'rsatkichga qaratilganini isbotlaydi: qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqarish hajmini oshirishga yo'naltirilgan va bu maqsadga erishilgan, sifat o'lchami esa siyosat diqqatidan chetda qolgan.

Aniqlangan nomutanosiblikni bartaraf etish uchun sanoatlashuv darajasini oshirishning uch qatlamli konseptual modeli qo'llanilishi mumkin. Modelning birinchi qatlami maqsad qatlami bo'lib, unda sanoatlashuv natijasi sanoat ulushi bilan emas, yaratilgan qo'shilgan qiymat va mahsulotning texnologik murakkabligi bilan o'lchanadi. Ikkinchi qatlam mexanizm qatlami bo'lib, u davlat qo'llab-quvvatlashini oldindan emas, erishilgan natijaga qarab beriladigan shartli rag'bat tizimiga aylantiradi. Uchinchi qatlam monitoring qatlami bo'lib, u sanoatlashuv sifatini muntazam o'lchaydigan integral ko'rsatkichlar tizimini nazarda tutadi. Aynan shu yopiq halqa modelni an'anaviy hajmiy yondashuvdan farqlaydi va sanoat siyosatining maqsad funksiyasini hajmdan sifatga o'tkazish imkonini beradi.

⁵ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) texnologik jadallik taksonomiyasi asosida muallif hisob-kitobi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil milliy iqtisodiyotning sanoatlashuvi hajmiy va sifat o'lchamlari o'rtasida chuqur nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatdi. Ishlab chiqarilgan tayyor sanoat mahsulotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2016-yildagi 15,2 foizdan 2025-yilda 21,7 foizga, kengaytirilgan sanoat guruhining ulushi esa 19,1 foizdan 26,7 foizga oshgan, ya'ni hajmiy o'sish ta'minlangan. Ayni paytda yuqori va o'rtacha yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi 2018-yildagi 29,2 foizdan 2025-yilda 20,7 foizga tushgan. Bu hajmiy va sifat o'lchamlarining nafaqat farq qilishini, balki qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanishi mumkinligini empirik tarzda isbotlaydi.

Ikkinchidan, sanoat o'sishining bitta tarmoq, ya'ni metallurgiya atrofida jamlanishi aniqlandi: uning ulushi 10,6 foizdan 24,3 foizga oshgan, Herfindahl konsentratsiya indeksi esa 2017-yildagi eng past nuqtadan qayta ko'tarilgan. Bu sanoat tarkibining bir necha yirik resurs tarmog'iga bog'lanib qolganini va uning tashqi narx konyunkturasiga sezgirligi oshganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, aniqlangan nomutanosiblik sanoat siyosatining muvaffaqiyatsizligini emas, uning maqsad funksiyasi hajmiy ko'rsatkichga qaratilganini isbotlaydi. Nomutanosiblikni bartaraf etish uchun sanoat siyosatining maqsad funksiyasini hajmiy ko'rsatkichdan sifat ko'rsatkichiga yo'naltirish, ya'ni qo'llab-quvvatlash choralari mahsulotning texnologik murakkabligiga bog'lash hamda sanoatlashuv sifatini muntazam o'lchovchi monitoring tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv milliy iqtisodiyotning sanoatlashuv darajasini hajmiy jihatdangina emas, balki sifat jihatidan ham oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmonov Q. X. **Mehnat iqtisodiyoti**: darslik. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2012. – 388 b.
2. Abulqosimov X. P. **Iqtisodiy xavfsizlik**: darslik. – T., 2022. – 732 b.
3. Jurayev T. **Iqtisodiyot nazariyasi**: darslik. – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024. – 504 b.
4. Topildiyev S. R. **Iqtisodiy siyosat**: darslik. – T.: TDIU; OOO «Diadema nur servis», 2025. – 372 b.
5. Vahobov A. V., O'lmasov A. **Iqtisodiyot nazariyasi**: darslik. – T., 2014. – 456 b.
6. Xodiyev B. Yu., Shodmonov Sh. Sh. **Iqtisodiyot nazariyasi**: darslik. – T.: «Barkamol fayz media», 2017. – 784 b.
7. Бодрунов С. Д. Новое индустриальное общество второго поколения: структура и главные направления развития // **Экономическое возрождение России**. – 2016. – № 2(48). – С. 5–14.
8. Бузгалин А. В., Колганов А. И. Новое индустриальное общество второго поколения: генезис институтов и производственных отношений // **Социологические исследования**. – 2017. – № 11. – С. 114–122.
9. Глазьев С. Ю. Прикладные результаты теории мирохозяйственных укладов // **Экономика и математические методы**. – 2016. – Т. 52. – № 3. – С. 3–21.
10. Gollin, D. (2014). The Lewis model: A 60-year retrospective. *Journal of Economic Perspectives*, 28(3), 71–88. DOI: 10.1257/jep.28.3.71.
11. Hartwig, J. (2008). Testing the Baumol–Nordhaus model with EU15 data. *Review of Income and Wealth*, 54(1), 105–119. DOI: 10.1111/j.1475-4991.2007.00262.x.
12. Herrendorf, B., Rogerson, R., & Valentinyi, Á. (2014). Growth and structural transformation. *Handbook of Economic Growth*, 2, 855–941. DOI: 10.1016/B978-0-444-53678-5.00006-9.
13. Krüger, J. J. (2008). Productivity of sectors and countries: A review of the Benhabib and Spiegel and the Petty–Clark–Kuznets hypotheses. *Journal of Economic Growth*, 13(4), 319–336. DOI: 10.1007/s10887-008-9034-4.
14. Mileva, E., & Leszczynska, A. (2018). Is Kaldor's second law still alive? Leverage, productivity, and growth in manufacturing. *World Development*, 102, 122–135. DOI: 10.1016/j.worlddev.2017.09.014.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari. Elektron manba: <https://stat.uz/>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>